



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-avgust
oylari*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 67-236-70-00*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 534 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 61 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 473 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 3 423,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 106,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 204,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 82,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 218,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 367,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	3 423,3	106,8
Guliston sh.	1 293,4	107,7
Shirin sh.	47,9	104,6
Yangiyer sh.	323,1	106,3
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	205,7	105,9
Guliston	175,1	105,7
Mirzaobod	244,2	106,7
Oqoltin	161,2	106,7
Sardoba	116,7	105,8
Sayxunobod	133,8	105,4
Sirdaryo	592,4	106,6
Xovos	129,7	105,9


2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan viloyatning, Guliston sh. (**107,7 %**), Mirzaobod (**106,7 %**), Oqoltin (**106,7 %**) Sirdaryo (**106,6 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-avgust)




So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar- avgust oylari uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, hududlar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **106,8** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Hajmi, mlrd. so'm

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 37,8 % bilan 1 293,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Shirin shahri 1,4 % bilan 47,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 218,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 8,7 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,0 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 17,1 % ga kamaydi va 204,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,0 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (100,0 %), Oqoltin (98,9 %) va Xovos (99,4 %) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 6,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston sh. (11,9 %) va Sardoba (2,2 %), Yangiyer sh. (5,6 %), Sirdaryo (2,2 %) tumanlarida kuzatildi.

6,0 %



94,0 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*

Guliston sh.

12 933,9

Shirin sh.

2 471,0

Yangiyer sh.

6 703,8

Boyovut

1 474,6

Guliston

2 191,8

Mirzaobod

3 022,2

Oqoltin

2 878,8

Sardoba

1 652,9

Sayxunobod

1 610,1

Sirdaryo


4 301,9

Xovos

1 261,6

2024- yilning yanvar-avgust holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 3 729,0 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 104,7 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (12 933,9 ming. so'm), Yangiyer shahri (6 703,8 ming. so'm) va Sirdaryo (4 301,9 ming. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-avgust), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	118,5	91,5
Guliston sh.	58,7	80,4
Shirin sh.	-	-
Yangiyer sh.	15,1	103,0
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	10,4	92,5
Guliston	7,1	127,5
Mirzaobod	-	-
Oqoltin	-	-
Sardoba	4,8	2,6 m.
Sayxunobod	-	-
Sirdaryo	22,4	96,2
Xovos	-	-


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-avgust)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-avgust)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 367,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 118,5 mlrd. so'mni (91,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 249,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (121,8 %).


2024 - yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 118,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (52,9 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 52,9 mlrd. so'm  44,7 %	Non va non mahsulotlari 24,9 mlrd. so'm  21,0 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 10,1 mlrd. so'm  8,6 %
Tovuq go'shti 7,1 mlrd. so'm  5,9 %	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar) 6,9 mlrd. so'm  5,9 %	Tuxum 6,2 mlrd. so'm  5,2 %
Ziravorlar 3,3 mlrd. so'm  2,8 %	Sut va sut mahsulotlari 2,9 mlrd. so'm  2,4 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 0,5 mlrd. so'm  0,4 %
Tuzlamalar 1,8 mlrd. so'm  1,5 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 1,0 mlrd. so'm  0,8 %	Nooziq-ovqat tovarlar 0,9 mlrd. so'm 0,8 %

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 249,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 202,2 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 31,4 mlrd. so'mni, otlar – 14,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva
mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 105,8 mlrd. so'm  42,5 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 44,6 mlrd. so'm  17,9 %	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 51,8 mlrd. so'm  20,8 %
Qo'ylar 25,0 mlrd. so'm  10,0 %	Otlar 14,7 mlrd. so'm  5,9 %	Echkilar 6,4 mlrd. so'm  2,6 %
Kurka, o'rdak, g'oz 0,2 mlrd. so'm  0,1 %	Tovuqlar 0,3 mlrd. so'm  0,1 %	Quyionlar 0,1 mlrd. so'm  0,1 %
Qushlar 0,04 mlrd. so'm  0,02%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- saentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 628 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	124,7	112,2
Guliston sh.	56,1	120,0
Shirin sh.	1,8	107,0
Yangiyer sh.	12,9	106,4
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	4,3	107,9
Guliston	11,7	104,5
Mirzaobod	11,4	104,8
Oqoltin	8,9	110,3
Sardoba	1,8	105,8
Sayxunobod	4,3	104,8
Sirdaryo	10,4	107,4
Xovos	1,1	108,0

2024- yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 124,7 mlrd. so‘mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 85,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Sirdaryo viloyati	362,9	100,0
Guliston sh.	48,9	13,5
Shirin sh.	0,5	0,1
Yangiyer sh.	4,2	1,2
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	2,0	0,6
Guliston	14,0	3,9
Mirzaobod	0,8	0,2
Oqoltin	120,3	33,1
Sardoba	17,8	4,9
Sayxunobod	1,7	0,5
Sirdaryo	151,8	41,8
Xovos	0,9	0,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (48,9 mlrd. so'm), Oqoltin (120,3 mlrd. so'm) va Sirdaryo (151,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-avgust oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 362,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65,2 % ga oshdi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 353,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 67,6 %), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi 9,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 7,1 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 920,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasi statistik hisoblarga qaraganda 2 814,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 121,2 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,4 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATI

2024- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 120 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 097 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘shish sur‘atlariga eng yirik korxonalar Guliston sh. (120,2), Yangiyer sh. (125,8) hamda Guliston (118,8), Sirdaryo (118,4) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	2 920,4	106,4
Guliston sh.	837,5	120,2
Shirin sh.	32,0	109,7
Yangiyer sh.	192,5	125,8
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	161,6	70,0
Guliston	108,6	118,8
Mirzaobod	124,6	114,5
Oqoltin	108,2	93,6
Sardoba	97,2	112,9
Sayxunobod	156,5	57,6
Sirdaryo	1 004,1	118,4
Xovos	97,6	87,0